

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITI

SHOYEV ALIM XALMURATOVICH

**OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA INKLYUZIV TA'LIMNI
RIVOJLANTIRISHDA IJTIMOYIY MARKETING VOSITALARIDAN
FOYDALANISH**

**08.00.11 – Marketing
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
economics sciences**

Shoyev Alim Xalmuratovich

Oliy ta’lim muassasalarida inklyuziv ta’limni rivojlantirishda ijtimoiy marketing vositalaridan foydalanish.....3

Шоев Алим Халмуратович

Использование инструментов социального маркетинга в развитии инклюзивного образования в высших учебных заведениях.....27

Shoiev Alim Khalmuratovich

Using social marketing tools in the development of inclusive education in higher education institutions.....53

E’lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works58

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITI

SHOYEV ALIM XALMURATOVICH

**OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA INKLYUZIV TA'LIMNI
RIVOJLANTIRISHDA IJTIMOYIY MARKETING VOSITALARIDAN
FOYDALANISH**

**08.00.11 – Marketing
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.2.PhD/Iqt1383 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Guliston davlat universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tseu.uz) va «ZiyoNet» axborot ta'lim portalida (http: www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Adilova Zulfiya Djavdatovna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Ergashxodjaeva Shaxnoza Djasurovna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Aslanova Dilbar Xasanovna
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

Yetakchi tashkilot:

Namangan muxandislik-texnologiya instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2020.I.16.02 raqamli ilmiy kengashning 2024 yil "5" "11" soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 233-60-01; e-mail: tsue@tsue.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining kutubxonasida tanishish mumkin (1522 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 239-28-72; e-mail: tsue@tsue.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil "19" "10" kuni tarqatildi.
(2024 yil "19" "10" dagi 34 - raqamli reestr bayonnomasi).



G.Q. Abduraxmanova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

O.Dj. Djurabaev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash ilmiy kotibi, i.f.d. (DSc), dotsent

M.A. Ikramov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi o'rinbosari i.f.d., professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda globallashuv jarayonlarining kuchayib borishining ifodasi sifatida mamlakatlar BMTning “Barqaror rivojlanish maqsadlari”dan kelib chiqqan holda, o‘z taraqqiyot yo‘llariga xizmat qiluvchi strategiyalarini ishlab chiqib, hayotga izchil joriy qilmoqdalar. Barqaror rivojlanish maqsadlari ta’lim sohasiga rivojlanishning muhim omillaridan biriga e’tibor qaratgani holda, uning alohida to‘rtinchi maqsadi sifatida “Har tomonlama va adolatli sifatli ta’limni ta’minlash va barcha uchun umr davomida ta’lim olish imkoniyatlarini rag‘batlantirish”¹ ajratib ko‘rsatiladi. Mazkur maqsadga erishishda ko‘plab yo‘nalishlar qatorida oliy ta’lim muassasalarida inklyuziv ta’limni rivojlantirishda ijtimoiy marketing vositalaridan foydalanishga ham e’tibor qaralib, ushbu holat ta’lim tizimini inklyuziv yondashuv asosida rivojlantirishning dolzarbligini namoyon etadi.

Dunyo mamlakatlarida tenglikni targ‘ib qilish evaziga iqtisodiy samaradorlikka erishishni ta’minlash, oliy maktabda inklyuziv ta’limni rivojlantirishda ijtimoiy marketing vositalaridan foydalanish muammolariga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Inklyuziv oliy ta’limni tadqiq etishning uslubiy asoslarini rivojlantirish, inklyuziv oliy ta’limni rivojlantirishda ijtimoiy marketing jihatidan yondashuv tamoyillarini ochib berish, zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy qilish orqali inklyuziv oliy ta’lim faolligini oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish, imkoniyati cheklangan shaxslar oliy ta’lim olishiga ta’sir etuvchi omillarning ekonometrik modelini ishlab chiqish kabi masalalar bu borada amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

Yangi O‘zbekistonning barqaror rivojlanishida aholi, shu jumladan, imkoniyati cheklangan shaxslar iqtisodiy faoliyatiga etarli shart-sharoitlarni yaratish orqali har bir jamiyat a’zosining faol ishtirokini ta’minlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. “Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) nogironlarni mehnat bozoridan chiqarib tashlashdan kelib chiqadigan iqtisodiy yo‘qotishlarni yalpi ichki mahsulotning 3-7 foizi oralig‘ida baholaydi”². Shu tariqa, nogironlarning munosib mehnat qilish huquqini amalga oshirish nafaqat inson huquqlari nuqtai nazaridan zarur, balki iqtisodiy rivojlanishga ham hissa qo‘shadi. O‘zbekistonda inklyuziv ta’lim samaradorligining asosiy mezoni muvaffaqiyatli ijtimoiylashuv, madaniyatni o‘zlashtirish, ijtimoiy tajribani rivojlantirish, yoshlarni, shu jumladan alohida ta’limga ehtiyojlari bo‘lgan talabalarni kasbiy jihatdan o‘z taqdirini o‘zlari belgilay olishlarida ifodalanadi. Shaxs nuqtai nazardan, oliy ta’lim hayotiy maqsadlarni tanlash erkinligi, ma’naviy va moddiy mustaqillikni ta’min etadi. Inklyuziv ta’lim jarayoni borasidagi nazariy qarashlar, xorijiy va mahalliy tajribalar o‘zining xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Biroq, oliy ta’lim muassasalarida inklyuziv jarayonlarning konstruktiv rivojlanishiga imkon beruvchi

¹ Bautista-Puig N. et al. Unveiling the research landscape of sustainable development goals and their inclusion in higher education institutions and research centers: major trends in 2000–2017 //Frontiers in Sustainability. – 2021. – T. 2. – C. 620743.

² МОТ, 2020 г. «Цена исключения: экономические последствия исключения людей с инвалидностью из мира труда», https://www.ilo.org/skills/pubs/WCMS_149529/lang--en/index.htm

mexanizmlar etarli darajada ishlab chiqilmaganligi mazkur tadqiqot mavzusining dolzarbligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida"gi, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2017-yil 1-dekabrdagi PF-5270-son "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, 2023-yil 27-fevraldagi PQ-74-son "Nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarning ijrosini ta'minlashda mazkur dissertatsion tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-ahloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Oliy ta'limda inklyuziv ta'limni rivojlantirishda ijtimoiy marketing vositalaridan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlar alohida tadqiqot yo'nalishi sifatida xorijlik olimlar E.R.Armstrong, J.E.Carins, C.Cupitt, Z.Debra, S.Friere, M.C.Fokina, R.S.Kaplan, D.P.Norton, S.Marginson, K.V.Makkleyн-Nxlapo, B.Myuller, M.Oliver, J.Reinhardt, R.Russell-Bennett, Salmi va boshqalarning ilmiy ishlarida atroflicha tahlil qilingan³. Jahon banki tomonidan 2019 yilda amalga oshirilgan "Oliy ta'limdagi tengsizlikni kamaytirish borasida amalga oshirilishi zarur bo'lgan chora-tadbirlar"

³ Armstrong F. Action Research for Inclusive Education, Prentice Hall. 2004.; Carins J.E. & Rundle-Thiele, S. (2013). Eating for the better: A social marketing review (2000-2012). *Public Health Nutrition*, 1-12; Cupitt C., Costello D., Raciti M. and Eagle, L. (2016). *Social Marketing Strategy for Low SES Communities: Position Paper*. National Centre for Student Equity in Higher Education, Perth.; Debra Z. Basil, Gonzalo Diaz-Meneses, & Michael D.Basil. (2019). *Social Marketing in Action: Cases From Around the World* (Vol. 1st ed. 2019). Springer.; Freire C. et. al. The potential of distance education for the inclusion of students in higher education // *Determining the Reliability of Online Assessment and Distance Learning. Handbook of Research*. Hershey, PA, USA, 2020. P. 379–401.; Фокина М.С. Проблемы и перспективы инклюзивного образования в условиях цифровизации // *Студенческий электронный журнал СТРИЖ*. 2021. № 2–1 (37). С. 82–84.; R.S.Kaplan and D.P.Norton, *The Balanced Scorecard: Measures That Drive Performance*. - Harvard Business Review, January-February 1992, 7179.; Marginson S. The worldwide trend to high participation higher education: Dynamics of social stratification in inclusive systems // *Higher education*. – 2016. – Т. 72. – С. 413-434.; Макклейн-Нхлапо К.В., Сивонен, Л.А., Раджа Д.С., Палуммо С.Акул, Э. 2022. Система включения инвалидов и подотчетности. Вашингтон, округ Колумбия: Группа Всемирного банка. Доступно по адресу: <http://documents.worldbank.org/curated/en/437451528442789278/Disability-inclusion-and-accountability-framework>.; Oliver M. *The Politics of Disability*. L.: Macmillan, 1990; Oliver M., Barnes C. *Disabled People and Social Policy. From Exclusion to Inclusion*. L., N.Y.: Longman, 1998.; Muller B., Reinhardt J. *Neural Networks. An introduction*. — Berlin: Springer*Verlag, 1991. - 266p.; Russell-Bennett R., Drennan, J. & Raciti, M. (2016). *Social Marketing Strategy for Widening Tertiary Education Participation in Low SES Communities: Field Research*. Brisbane, Queensland University of Technology.; Salmi (2018). *All Around the World – Higher education equity policies across the globe*. The Lumina Foundation.

nomli tadqiqotda dunyo mamlakatlari kesimida oliy ta'limda inklyuzivlikni oshirish muammolariga echimlar berilgan⁴.

Iqtisodiyot bo'yicha 2024 yilgi Nobel mukofoti: Jeyms Robinson, Daron Ajemog'lu va Saymon Jonsonlarga berildi. Daron Ajemog'lu, Saymon Jonson va Jeyms Robinsonning ishlari global iqtisodiy rivojlanishni tushunishda katta ahamiyatga ega. Ular texnik innovatsiyalar yoki xorijiy investitsiyalar inklyuziv institutlarsiz barqaror rivojlanishni kafolatlay olmasligini ko'rsatdilar. Bu, ayniqsa, doimiy kambag'allik va beqarorlikdan chiqishni xohlayotgan mamlakatlar uchun muhimdir. Islohotlar mulk huquqlarini himoya qilish, biznes uchun teng sharoitlar yaratish va ta'lim hamda sog'liqni saqlashga kirish imkoniyatini ta'minlash kabi institutsional o'zgarishlardan boshlanishi lozimligi ta'kidlab o'tilgan⁵.

Inklyuziv oliy ta'limda ijtimoiy marketing texnologiyalaridan foydalanishning o'ziga xos jihatlari MDH olimlaridan L.V.Andreeva, M.V.Anaxina, A.F.Buruk, T.V.Volosovets, M.A.Kirpicheva va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida o'rganilgan⁶.

O'zbekistonlik olimlardan inklyuziv oliy ta'lim, shu jumladan ijtimoiy marketingni qo'llash masalalari Q.X.Abduraxmanov, Z.Dj.Adilova, B.N.Boboqulov, Sh.N.Zaynutdinov, R.I.Nurimbetov, A.S.Sultanov, O.Isoqov, D.Turaeva, Q.A.Sharipov, D.Yusupov asarlarida ko'rib chiqilgan⁷. Ammo iqtisodiy taraqqiyotning hozirgi bosqichida ijtimoiy marketing texnologiyalarini amalda qo'llash orqali inklyuziv oliy ta'lim samaradorligini oshirish borasida tadqiqotlarni yanada jonlantirish talab qilinadi.

⁴ Herbaut E., Geven K. What works to reduce inequalities in higher education? A systematic review of the (quasi-) experimental literature on outreach and financial aid //Research in Social Stratification and Mobility. – 2020. – T. 65. – С. 100442.

⁵ Abduraxmanov Q.X. Nobel mukofoti 2024: qanday qilib inklyuziv institutlar iqtisodiy kelajakni shakllantirmoqda. <https://yuz.uz/news/nobel-mukofoti-2024-qanday-qilib-inklyuziv-institutlar-iqtisodiy-kelajakni-shakllantirmoqda>.

⁶ Андреева Л.В., Бойков Д.И., Войлокова Е.Ф. и др. Образование лиц с ограниченными возможностями в контексте программы Юнеско «Образование для всех»: опыт России./ под ред. акад. Г.А. Бордовского СПб.: Изд-во РГПУ им.А.И.Герцена. - 2007,- 81 с.; Основы инклюзивного образования: учебное пособие / составители С.Д. Балданова, М.В. Анахина. – Улан-Удэ : Бурятская ГСХА им. В.Р. Филиппова, 2022 - 199 с.; Бурук А.Ф. Инструменты digital-маркетинга : учеб. пособие / А.Ф. Бурук, Е.В. Убоженко. – Новосибирск: СГУГиТ, 2021.–75 с.; Волосовец Т.В. Проблемы трудоустройства выпускников специализированных (коррекционных) образовательных учреждений и профессионального образования инвалидов/Воспитание и обучение детей с нарушениями в развитии. - 2002. - № 4. - С. 3-10; Кирпичева М.А., Коньчева Ю.Д. Развитие маркетинга в экосистеме вуза: экономические и социально-психологические аспекты // Гуманитарные науки. Вестник Финансового университета. 2023. №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/razvitie-marketinga-v-ekosisteme-vuza-ekonomicheskie-i-sotsialno-psihologicheskie-aspekty> (дата обращения: 04.11.2023).

⁷ Abdurakhmanov K.KH., Khakimov N.K., Makhmutkhodjaeva L.S. Higher education as a significant factor of Uzbekistan's sustainable development. ESPACIOS. Vol. 40 (Number 9) Year 2019. Page 15.; Adilova Z.Dj., Xonturaev B.A. O'zbekiston Respublikasida inklyuziv ta'limga ehtiyojni aniqlash: muammo va echimlar. Axborot-tahliliy ma'lumot. – T.2019. 42 .; Boboqulov B.N. Ijtimoiy media marketingi, o'quv qo'llanma T.:Innovatsion rivojlanish nashriyoti, 2022; Зайнутдинов Ш.Н., Нуримбетов Р.И., Султанов А.С. Глобализация образования и развитие человеческого капитала. Бюллетень науки и практики, (2019). 5(6), 473-479.; Исаков О. 2021 г. Доступ к правосудию лиц с ограниченными возможностями. Реализация экономических, социальных и культурных прав: взгляды на законодательство и практику в Узбекистане. Сборник бумаг. ISBN 978-92-9037-297-4.; Тураева Д. (2023). Развитие маркетинговой деятельности образовательных услуг в высших учебных заведениях республики Узбекистан. *Economics and Innovative Technologies*, 11(1), 264–272. https://doi.org/10.55439/EIT/vol11_iss1/a28; Sharipov Q.A. "Inklyuziv ta'lim qanday shakllanadi" Halq so'zi 2021 yil 21 oktyabr №229 (8009); Юсупов Д., Абдухалилов А. 2022 г. Барьеры для трудоустройства с учетом интересов инвалидов в Узбекистане: пилотное качественное исследование жизненного опыта людей с ограниченными возможностями. Дж. Междунар. Дев. Доступно по адресу: <https://doi.org/10.1002/jid.3693>.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Guliston davlat universitetining ilmiy - tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Yangicha iqtisodiy munosabatlarning qaror topishi sharoitida milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning ilmiy muammolari va zamonaviy echimlari" mavzusidagi ilmiy - tadqiqot loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Oliy ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirishda ijtimoiy marketing vositalarini keng qo'llash borasida taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

inklyuziv oliy ta'limning nazariy va uslubiy asoslarini ijtimoiy marketing nuqtai nazaridan tahlil qilish, "inklyuziv ta'lim" tushunchasi borasida mavjud qarashlarni o'rganish, qiyoslash asosida uni to'ldirish;

ijtimoiy marketing vositalari yordamida inklyuziv oliy ta'limni rivojlantirish imkoniyatlarini o'rganish va oliy ta'lim muassasalari faoliyatini ijtimoiy marketing tamoyillari asosida tashkil qilish;

ijtimoiy marketing texnologiyalaridan foydalangan holda, O'zbekistonda inklyuziv oliy ta'limni rivojlantirish borasidagi mavjud to'siq va muammolarni o'rganish;

inklyuziv oliy ta'limda ijtimoiy marketingdan foydalanishning xorij tajribalaridan mahalliy sharoitlarda foydalanish imkoniyatlarini baholash;

oliy ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'limni takomillashtirish va samaradorligini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy qilish orqali inklyuziv oliy ta'lim faolligini oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish;

oliy ta'lim muassasalarida imkoniyati cheklangan shaxslarning ta'lim olishiga ta'sir etuvchi mavjud to'siqlarning ko'p omilli ekonometrik modelini ishlab chiqish;

imkoniyati cheklangan OTM bitiruvchilarinig mehnat bozorida ishtirok etishi va qo'shilishi borasida mavjud muammolarni tahlil qilish

Tadqiqotning ob'ekti sifatida O'zbekistonda faoliyat ko'rsatuvchi mahalliy oliy ta'lim muassasalari, xususan Guliston davlat universiteti, Guliston davlat pedagogika instituti, Toshkent kimyo texnologiya institutining Yangier filiali tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini inklyuziv oliy ta'limda ijtimoiy marketingdan foydalanish jarayonida sub'ektlar o'rtasida vujudga keluvchi ijtimoiy - iqtisodiy munosabatlar tashkil qiladi.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiya ishida ilmiy abstraktsiya, tahlil va sintez, klaster-tahlil, statistik tahlil, qiyosiy tahlil, tanlama kuzatish, ijtimoiy so'rovlar o'tkazish va tahlil etish, ekonometrik tahlil usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra "inklyuziv oliy ta'lim" tushunchasining iqtisodiy mazmuni ta'lim olishdan barcha talabalarning jismoniy, aqliy, ijtimoiy yoki madaniy xususiyatlaridan qat'iy nazar, bilim olishi va ta'lim jarayonida ishtirok etishi uchun teng sharoitlarni ta'minlashda ozchilik toifalari doirasida maqsadli guruhlarning yangi kichik toifalarini kiritish asosida takomillashtirilgan;

inklyuziv oliy ta'limni ijtimoiy marketing vositalari bilan to'ldirish asosida shakllantirilgan ijtimoiy marketingni rejalashtirishning baholash (IM_B), dizayn (IM_D), bajarish (IM_{BJ}), tavsiflash va o'rganish (IM_T) asosiy bosqichlari o'rtasidagi maqbul nisbatlarni (IM_B q 0,31; IM_D q 0,17; IM_{BJ} q 0,33; IM_T q 0,19) belgilash orqali ijtimoiy marketing vositalaridan foydalanish samaradorligini oshirish asoslangan;

klasterlashtirishga asoslangan inklyuziv oliy ta'lim modeliga ko'ra oliy ta'lim muassasasi inklyuziv ta'lim muhitining funksional tuzilmasi tarkibini imkoniyati cheklangan talabalarni qo'llab-quvvatlash markazi faoliyatini yo'lga qo'yish orqali takomillashtirish taklifi asoslangan;

Sirdaryo viloyatida istiqomat qiluvchi imkoniyati cheklangan talabalar sonining hududdagi oliy ta'lim muassasalariga o'qishga hujjat topshirishiga ta'sir qiluvchi ko'p omilli ekonometrik model asosida 2027 yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Inklyuziv oliy ta'lim samaradorligini oshirish omillari aniqlashtirilgan, inklyuziv oliy ta'limda ijtimoiy marketingdan samarali foydalanish kontseptsiyasi zamonaviy qarashlar asosida boyitilgan;

inklyuziv oliy ta'limning ijtimoiy marketing tamoyillaridan foydalangan holda, ta'lim xizmatlarini tasniflash yondashuvlari va xizmat turlari aniqlashtirilgan;

inklyuziv oliy ta'limda ijtimoiy marketing texnologiyalaridan foydalanishning xorij tajribasini umumlashtirish asosida milliy oliy ta'lim tizimida ijtimoiy marketingdan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari ko'rsatib berilgan;

nogironlar va alohida ta'lim ehtiyoji mavjud shaxslarning jamiyatga to'laqonli integratsiyalashuvida ijtimoiy marketingning o'rnini kengaytirish yo'llari taklif qilingan;

raqamli marketing texnologiyalaridan foydalanishni jadallashtirish orqali inklyuziv oliy ta'lim samaradorligini oshirish manbalari ochib berilgan;

oliy ta'lim muassasalari tomonidan ko'rsatilayotgan ta'lim xizmatlari, shu jumladan inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirish borasida ta'lim klasterini yo'lga qo'yishga asoslangan ta'lim xizmatlarini maqbullashtirish algoritmidan foydalanish afzalliklari asoslab berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotni amalga oshirish jarayonida qo'llanilgan ilmiy-uslubiy yondashuvlar va usullarning tadqiqot maqsadi bilan mosligi hamda ilmiy asoslanganligi, monografik tahlillar va statistik ma'lumotlar bazasining rasmiy manbalardan olinganligi, o'tkazilgan so'rovnomalarning keng qamrovli respondentlar doirasida o'tkazilganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarining amalda sinovdan o'tganligi, shuningdek olingan natijalarning amaliyotda foydalanilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati inklyuziv ta'lim kontseptsiyasining ijtimoiy marketing texnologiyalaridan amalda foydalanish asosida boyitilganligi; inklyuziv oliy ta'limda ijtimoiy marketingdan foydalanishning ilg'or xorij tajribalarini umumlashtirish asosida mahalliy sharoitda inklyuziv oliy ta'limda ijtimoiy marketing samaradorligini oshirish yo'llari ko'rsatib berilganligi; raqamli

marketing texnologiyalardan foydalangan holda inklyuziv oliy ta'lim samaradorligini oshirish manbalari asoslab berilganligi; inklyuziv ta'lim qamrovi va sifatini oshirishda ta'lim klasterlaridan foydalanishning muhimligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan nazariy, uslubiy va amaliy ishlanmalardan inklyuziv oliy ta'lim samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqishda hamda oliy ta'lim muassasalarida "Ijtimoiy marketing", "Ijtimoiy soha iqtisodiyoti" kabi fanlarni o'qitish sifatini oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Oliy ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'limni rivojlantirishda ijtimoiy marketing vositalaridan foydalanishni takomillashtirish borasida ishlab chiqilgan ilmiy taklif va tavsiyalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra "inklyuziv oliy ta'lim" tushunchasining iqtisodiy mazmunini ta'lim olishdan barcha talabalarning jismoniy, aqliy, ijtimoiy yoki madaniy xususiyatlaridan qat'i nazar, bilim olishi va ta'lim jarayonida ishtirok etishi uchun teng sharoitlarni ta'minlashda ozchilik toifalari doirasida maqsadli guruhlarning yangi kichik toifalarini kiritish asosida takomillashtirishga oid nazariy-uslubiy materiallardan oliy o'quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan "Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar" nomli o'quv qo'llanmani tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 09-sentyabrdagi 302-sonli buyrug'i). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda bilim olishi va ta'lim jarayonida ishtirok etishi uchun teng sharoitlarni ta'minlashda ozchilik toifalari doirasida maqsadli guruhlarning yangi kichik toifalarini kiritish asosida takomillashtirilgan "inklyuziv oliy ta'lim" tushunchasining iqtisodiy mazmuni yuzasidan nazariy bilimlarni yanada kengaytirish imkoni yaratilgan (O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2024-yil 22-avgustdagi 01/00-03/10-8548-sonli dalolatnomasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazining 2024-yil 23-avgustdagi 02/01-01-70 sonli ma'lumotnomasi);

inklyuziv oliy ta'limni ijtimoiy marketing vositalari bilan to'ldirish asosida shakllantirilgan ijtimoiy marketingni rejalashtirishning baholash (IM_B), dizayn (IM_D), bajarish (IM_{BJ}), tavsiflash va o'rganish (IM_T) asosiy bosqichlari o'rtasidagi maqbul nisbatlarni (IM_B q 0,31; IM_D q 0,17; IM_{BJ} q 0,33; IM_T q 0,19) belgilash orqali ijtimoiy marketing vositalaridan foydalanish samaradorligini oshirish taklifidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 21 iyundagi 341-son "Nogironligi bo'lgan yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat xizmatlarini ko'rsatishning ma'muriy reglamentlarini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2024-yil 22-avgustdagi 01/00-03/10-8548-sonli dalolatnomasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazining 2024-yil 23-avgustdagi 02/01-01-70 sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida ta'lim xizmatlari bozorining

ijtimoiylashuvi orqali ijtimoiy marketing vositalaridan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyati yaratilgan;

klasterlashtirishga asoslangan inklyuziv oliy ta'lim modeliga ko'ra oliy ta'lim muassasasi inklyuziv ta'lim muhitining funksional tuzilmasi tarkibini imkoniyati cheklangan talabalarni qo'llab-quvvatlash markazi faoliyatini yo'lga qo'yish orqali takomillashtirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyundagi PF-82-son "Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmonida ko'zda tutilgan chora-tadbirlar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2024-yil 22-avgustdagi 01/00-03/10-8548-sonli dalolatnomasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazining 2024-yil 23-avgustdagi 02/01-01-70 sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida oliy ta'lim muassasasi inklyuziv ta'lim muhitining funksional tuzilmasi tarkibida imkoniyati cheklangan talabalarni qo'llab-quvvatlash markazi faoliyatini yo'lga qo'yish orqali oliy ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'limni yanada rivojlantirish imkoni yaratilgan;

Sirdaryo viloyatida istiqomat qiluvchi imkoniyati cheklangan talabalarning hududdagi oliy ta'lim muassasalariga o'qishga hujjat topshirishiga ta'sir qiluvchi ko'p omilli ekonometrik model asosida 2027 yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlaridan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 15-iyundagi F-60-son "2022-2023 o'quv yili uchun davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risida"gi Farmoyishi ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2024-yil 22-avgustdagi 01/00-03/10-8548-sonli dalolatnomasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazining 2024-yil 23-avgustdagi 02/01-01-70 sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida Sirdaryo viloyatida istiqomat qiluvchi imkoniyati cheklangan talabalar sonining hududdagi oliy ta'lim muassasalariga o'qishga hujjat topshirishi bilan bog'liq uzoq muddatli istiqboldagi asosiy faoliyat parametrlarining o'zaro muvofiqligini ta'minlash imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishining asosiy natijalari 4 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 21 ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan 2 respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 148 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va ilmiy ahamiyati asoslangan, tadqiqotning respublikada olib borilayotgan fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, mavzu bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob‘ekti va predmeti, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilinib, olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinganligi va sinovdan o‘tganligi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi hamda hajmi bo‘yicha ma‘lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning “**Oliy ta‘lim muassasalarida inklyuziv ta‘limni rivojlantirishda ijtimoiy marketing vositalaridan foydalanishning nazariy va uslubiy asoslari**” deb nomlanuvchi birinchi bobida oliy ta‘lim sohasida ijtimoiy marketing faoliyatini yo‘lga qo‘yish muammolari, oliy ta‘lim muassasalari faoliyatini ijtimoiy marketing tamoyillari asosida tadqiq etish, ijtimoiy marketingning inklyuziv ta‘limdagi o‘rni va oliy ta‘lim muassasalariga joriy etishning xorij tajribasi tahlil qilingan.

Tadqiqot davomida biz tomonimizdan Inklyuziv ta‘lim mohiyatini ochib berishda bir qator xorijiy va mahalliy olimlarning ta‘riflari o‘rganildi hamda mazkur ta‘limga nisbatan mualliflik yondashuni ishlab chiqildi (1-jadval)

1-jadval

Inklyuziv ta‘lim ta‘riflari⁸

Piter Mittler	Inklyuziv ta‘lim - bu jinsi, yoshi, millati, qobiliyati, mavjudligi yoki yo‘qligidan qat‘iy nazar, barcha bolalar va kattalarga inklyuziv jamiyat yaratishdek yakuniy maqsadga erishish yo‘lidagi birinchi qadamdir. Bu nogiron va OIV infeksiyasiga chalingan shaxslarning, jamiyat hayotida to‘liq ishtirok etish va unga hissa qo‘shish imkoniyatini beradi.
Malofeev N.N.	Inklyuziv ta‘lim - bu nogironlarning kundalik hayoti ular yashayotgan jamiyat sharoitlari va turmush tarziga imkon qadar yaqin bo‘lishi kerak degan g‘oyaga asoslanadi.
Pugachyov A.S.	Inklyuziv ta‘lim - bu umumiy ta‘limni rivojlantirish jarayoni bo‘lib, u barcha o‘quvchilarning turli ehtiyojlariga moslashish nuqtai nazaridan ta‘limning barcha uchun ochiqligini nazarda tutadi, bu alohida ta‘limga muhtoj o‘quvchilarning ta‘lim olish imkoniyatini ta‘minlaydi
Latipova N.M.	Inklyuziv ta‘lim maxsus yordamga muhtoj bo‘lgan bolalarni sog‘lom tengdoshlari bilan birga umumta‘lim muassasalarida o‘qitish va tarbiyalashni ko‘zda tutadi.
Muallif ta‘rifi	Inklyuziv ta‘lim - bu uslubiy, kontseptual va tashkiliy jihatdan jamiyatning barcha a‘zolarini salomatligi va ijtimoiy holatidan qat‘i nazar, birgalikda o‘qitish va tarbiyalashga qaratilgan, ta‘lim sifatiga qo‘yiladigan yagona talablarga rioya etish orqali maxsus ta‘lim ehtiyoji va imkoniyatlarini hisobga olgan holda faoliyat ko‘rsatuvchi ta‘lim modeli hisoblanadi

⁸ Muallif ishlanmasi

Ta'lim sohasi xizmat ko'rsatish sohasidan o'z mazmuni va yo'nalishi jihatidan bir muncha farq qilsada, xizmat ko'rsatish sohasi uchun M.Bittner va B.Bums tomonidan ishlab chiqilgan marketing majmuining 7P modelidan ta'lim sohasida ham foydalanish mumkin⁹. Muallif fikricha, 7P modelidan ta'lim sohasida bir qator farqli jihatlarni e'tiborga olgan holda foydalansa bo'ladi (1-rasm).

1. Tovar siyosati (Product):

- o'quv dasturlarini ishlab chiqish;
- tadqiqot loyihalarini ishlab chiqish va bajarish;
- uslubiy ishlanmalar;
- nashr faoliyati;

2. Personal (Personnel):

- malakali kadrlarni saralash;
- ilmiy maktablarni rivojlantirish;
- ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish;
- OTM xodimlari malakasini oshirish;

3. Ta'lim faoliyati jarayoni(Process):

- ta'lim faoliyati ishtirokchilari o'rtasida hamkorlik;
- ta'lim faoliyatini uslubiy ta'minlash;
- ta'lim faoliyati natijalarini nazorat qilishni tizimlashtirish;
- o'qitishning qulay jadvali;

4. O'qitish joyi va usuli (Place):

- binolarni jihozlash;
- ta'lim resurslari, masofaviy o'qitish imkoniyatlari;
- hududni obodonlashtirish;
- transport infratuzilmasining mavjudligi;

5. Narx siyosati (Price):

- OTMda davlat buyurtmasining mavjudligi;
- ta'lim xizmatlari bozorida tariflarni monitoring qilish;
- bozor sharoitlaridan kelib chiqib tariflarni hisoblash;
- o'qitish uchun to'lovlarning egiluvchan tizimini yaratish;

6. Marketing kommunikatsiyalari siyosati (Siljitish) (Promotion):

- jamoatchilik bilan aloqalar;
- OTM reklamasi;
- OTMning muhim tadbirlarda ishtiroki

7. Ta'lim xizmatlarining atributlari (Physical evidence):

- OTMning korporativ stilini yaratish;
- Korporativ ramzlarning mavjudligi

1-rasm. Ta'lim tashkiloti marketing majmui unsurlari¹⁰

⁹ Цзян Ч., Кметь Е.Б. Развитие моделей комплекса маркетинга: 4P, 7P, 4C, 4V и 4R //Экономическая наука сегодня: теория и практика. – 2015. – С. 143-148.

¹⁰Цзян Ч., Кметь Е.Б. Развитие моделей комплекса маркетинга: 4P, 7P, 4C, 4V и 4R //Экономическая наука сегодня: теория и практика. – 2015. – С. 143-148.

“Tenglikni ta’minlash bo‘yicha maqsadli guruhlar” jamiyatdagi kam sonli guruhlarga mansub talabalarni o‘z ichiga oladi, bunda hukumatlar maqsadli guruhlarni o‘z milliy siyosatlarining bir qismi sifatida tan olishlari va qo‘llab-quvvatlashlari lozim.

Odatda, ozchilik guruhlari asosan etnik, lingvistik, diniy xususiyatlari yoki yashash joyi jihatidan aniqlashtirib kelingan¹¹, ammo 2018 yilda Lumina tadqiqoti doirasida halqaro oliy ta’lim kunini (WAHED) ilk marta nishonlash tadbiri amalga oshirildi. Unda 71 mamlakatda o‘tkazilgan so‘rov natijalariga ko‘ra, bir qator mamlakatlar tenglik borasida maqsadli guruhlarni aniqlashtirishda “ozchiliklar”ning keng tasnifi doirasida yangi kichik toifalarni ham kiritishgan (2-jadval).

2-jadval

Ozchilik toifalari doirasida maqsadli guruhlarning yangi kategoriyalari¹²

Maqsadli guruhlar	Mamlakatlar
Katta yoshdagi talabalar	Avstraliya, AQSh
LGBTQIA ¹³	Braziliya, Kolumbiya
Jinsiy tahqirlash-zo‘ravonlik qurbonlari	Kolumbiya, Ekvador, Ispaniya
Deportatsiya qilingan muhojirlar	Ekvador, Meksika
Nogiron faxriylar yoki davlat xizmatchilarining bolalari	Meksika, Rossiya, Vetnam
Xorijiy muhojirlar	Avstraliya, Kolumbiya, Yangi Zelandiya
Harbiy oilalarning farzandlari	Angliya
Fuqarolar urushi yoki tabiiy ofatlar natijasida mamlakat ichida ko‘chirilganlar	Kolumbiya, Gruziya
Partizan otryadlari va harbiylashtirilgan tuzilmalarning demobilizatsiya qilingan jangchilari	Kolumbiya
Milliy tilni bilmaydigan talabalar	Daniya
Bolalarni parvarish qilish tajribasiga ega talabalar, etimlar, ota-ona qaramog‘isiz qolgan yoshlar	Avstriya, Angliya, Gruziya, Qirg‘iziston, Rossiya, Shotlandiya
Yolg‘iz onalar	Ekvador
Bolalari 3 nafardan ko‘p bo‘lgan oilalar	Gruziya, Janubiy Koreya
Sovet davrida deportatsiya qilingan ota-onalarning farzandlari	Gruziya
Qamoqqa olingan odamlar, sobiq jinoyatchilar	Venesuela, Uels
Bosib olingan hududlarda istiqomat qiluvchi talabalar	Gruziya

Umumiy o‘rta ta’lim bo‘g‘inida Respublika bo‘yicha jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarga asosan uy ta’limi va 90-ta ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarda ta’lim berilmoqda, ammo

¹¹ https://www.ohchr.org/sites/default/files/Documents/Publications/MinorityRights_ru.pdf

¹² Salmi (2018). All Around the World – Higher education equity policies across the globe. The Lumina Foundation.

¹³ lesbian, gay, bisexual, transgender, queer (or questioning), intersex and asexual (or allies) https://www.oxfordlearnersdictionaries.com/definition/english/lgbtqia_1

professional va oliy ta'lim bo'g'inida mazkur toifadagi yoshlarni qamrab olish va o'qitishda jiddiy muammolar borligi aniqlangan. Aynan shu sababli muallif "16-18 yoshdagi nogironligi mavjud yoshlar" kategoriyasini ozchilik guruhlariga kiritishni maqsadga muvofiq deb hisoblaydi.

Dissertatsiyaning **"Oliy ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'limni rivojlantirishda ijtimoiy marketing vositalaridan foydalanish holati tahlili"** deb nomlangan ikkinchi bobida oliy ta'lim muassasalarida ijtimoiy marketing vositalari va inklyuziv ta'lim modellaridan foydalanish holati, O'zbekistonda inklyuziv oliy ta'limni ijtimoiy marketing asosida rivojlantirish muammo va to'siqlari, O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida ijtimoiy marketing vositalari asosida inklyuziv ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish atroflicha o'rganilgan va bu borada muallifning taklif va tavsiyalari ilgari surilgan.

Qayd etish kerakki oxirgi yillarda mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalari va ularga qabul qilinayotgan talabalar soni keskin o'sishi kuzatilmoqda. 2018-2019 o'quv yilida O'zbekistonda faoliyat yuritgan oliy ta'lim muassasalari soni 98 tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-2024 o'quv yiliga kelib 213 tani tashkil etdi.¹⁴

Statistik ma'lumotlarning tahlili 2018-2023 yillar davomida oliy ta'lim muassasalariga qabul qilinganlar soni ko'payganligini ko'rsatadi. Xususan, 2018-2019 o'quv yiliga nisbatan, 2023-2024 o'quv yilida oliy ta'lim muassasalariga qabul qilinganlar soni 3 baravarga (114,5mingdan 363,03 minggacha), nodavlat oliy ta'lim muassasalariga qabul 45,4 barobar, xorijiy oliy ta'lim muassasalariga esa 2,3 barobarga oshgan.¹⁵

"Bugungi kunda maxsus ta'limga ehtiyoji mavjud bo'lgan shaxslarni maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, kasb-hunar ta'lim olishlarining moliyaviy ta'minoti aniq belgilab berilgan bo'lsada, oliy ta'limda tahsil oluvchi alohida ta'lim ehtiyojiga ega bo'lgan shaxslarning moliyaviy ta'minoti masalalari amaldagi imkoniyati cheklangan talabalar uchun mo'ljallangan talabalar o'rnining to'ldirilishi (%) qonunchilik hujjatlarida to'la o'z aksini topmagan. Xususan, O'zbekiston Respublikasining "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi O'RQ-641-sonli qonunida "Nogironligi bo'lgan shaxslar uchun oliy ta'lim muassasalarida davlat granti asosida abituriyentlarni qabul qilish umumiy sonining ikki foizi miqdorida qo'shimcha qabul kvotasi ajratilishi va nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'shimcha kvota asosida oliy ta'lim muassasalariga qabul qilish kirish imtihonlari natijalari bo'yicha amalga oshirilishi" ko'zda tutilgan xolos"¹⁶.

Mamlakatimizda imkoniyati cheklangan talabalar mahalliy oliy ta'lim muassasalariga kunduzgi, sirtqi, kechki va masofaviy ta'lim kabi o'qitishning mavjud bo'lgan barcha shakllarida qabul qilinayotgan bo'lsada, 2023-2024 o'quv yilida imkoniyati cheklangan talabalar uchun ajratilgan o'rinlarning to'rdan uch

¹⁴ O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati (2023-yil, yanvar-dekabr), www.stat.uz

¹⁵ O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati (2023-yil, yanvar-dekabr), www.stat.uz

¹⁶ O'zbekiston Respublikasining "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi O'RQ-641-sonli qonuni, <https://lex.uz/docs/5049511#5054401>

qismi to'lgan xolos¹⁷. 2023-2024 o'quv yilida mahalliy oliy ta'lim muassasalariga 363,03 ming talaba qabul qiligan (3-jadval).

3-jadval

Oliy ta'lim muassasalariga qabul qilingan nogironligi mavjud talabalar soni (kvota tizimi bo'yicha)¹⁸

Ko'rsatkichlar	2019-2020 o'quv yili	2020-2021 o'quv yili	2021-2022 o'quv yili	2022-2023 o'quv yili	2023-2024 o'quv yili
Qabul qilingan imkoniyati cheklangan talabalarning umumiy soni	2068	2799	3155	4327	5633
Doimiy asosda	1629	2072	2270	3278	4409
To'liq bo'lmagan bandlik	400	627	754	884	1014
Kechki mashg'ulotlar	39	100	131	165	210
Qabul qilingan talabalarning umumiy soni	138000	174900	235900	284300	363030
Imkoniyati cheklangan talabalar uchun joylar soni (2 %)	2760	3498	4718	5686	7260
Imkoniyati cheklangan talabalar uchun mo'ljallangan talabalar o'rining to'ldirilishi (%)	74,9	80,0	66,9	76,1	77,6


Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki Sirdaryo viloyatidagi mahalliy OTMLar Guliston davlat universiteti, Guliston davlat pedagogika instituti, Toshkent kimyo-texnologiya institutining Yangier filialarida 2019-2023 yillar davomida umumiy qabul qilingan talabalar soni o'sish tendensiyasiga ega, ammo umumiy qabul qilinganlar tarkibida imkoniyati cheklangan talabalar soni yillar va OTMLar kesimida bir xil tendensiyaga ega emas, ayrim OTMLarda (Guliston davlat pedagogika instituti) bu ko'rsatkich xattoki pasayganini kuzatish mumkin, buning asosiy sabablari sifatida mazkur OTMLarda imkoniyati cheklangan talabalar uchun etarlicha sharoitlar yaratib berilmagani aniqlandi.

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirishning asosiy to'siqlari sirasida quyidagilar aniqlandi: arxitekturaviy to'siqlar; tashkiliy-huquqiy to'siqlar; moliyaviy to'siqlar; kognitiv to'siqlar; axborot to'siqlari; texnik va texnologik to'siqlar; ijtimoiy-psixologik to'siqlar; mutaxassis kadrlarning tanqisligi.

Shu o'rinda muallif tomonidan mazkur muammoni bartaraf etish bo'yicha OTMning inklyuziv ta'limning axborot muhiti tuzilmasi taklif etilmoqda (2-rasm).

¹⁷O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ma'lumotlari

¹⁸ O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.



2-rasm. Inklyuziv ta'limning axborot muhiti¹⁹

Muallif tomonidan taklif etilayotgan inklyuziv ta'limning axborot muhiti OTMda talabalar erkin harakatlanishi, o'qishi, kerakli ma'lumotlarni olishi, tengdoshlari bilan muloqot qilishi, ijtimoiy hayotning turli shakllarida ishtirok etishi, mehnat bozorida talab va raqobatbardoshlikni ta'minlaydigan yuqori sifatli kasbiy ta'lim olishlari mumkin bo'lgan barcha sharoitlar yaratib beradi.

Izlanishlar natijasida biz inkliv oliy ta'lim muassasasining ijtimoiy marketing majmuini taklif qildik. Inklyuziv oliy ta'limda ijtimoiy marketing uslubiyotini ishlab chiqishda tavsiya etilayotgan majmua rejalashtirishning 4 asosiy bosqichi (baholash, loyihalash, bajarish va tavsiflash) va ularga mos keladigan kichik vazifalar (10 turdagi faoliyat)dan iborat (4-jadval).

¹⁹ Muallif ishlanmasi

Inklyuziv oliy ta'limni ijtimoiy marketing majmui²⁰


Ijtimoiy marketingni rejalashtirish bosqichlari	Vazifalar	Vositalar	Hamkorlikda qiymat yaratish	Yakuniy natija	Bosqichlari o'rtasidagi maqbul nisbatlar
1. Baholash (IM_B)	1. Muammoni aniqlash (xulq-atvor va maqsadli guruhni tanlash)	Muammoning qo'yilishi va maqsadli guruh andozasi	Hamkorlikdagi qiymatlarni aniqlash	Muammo va maqsadli guruhning xulq-atvor jihatini aniq anglab yetish	q 0,31
	2. Manfaatdor tomonlarni tahlil qilish	Manfaatdor tomonlar matritsasi			
	3. Vaziyatni tahlil qilish	SWOT-tahlil matritsasi			
	4. Maqsadli auditoriyani tadqiq qilish va tahlil qilish (kabinetli va shakllantiruvchi tadqiqotlar): - Auditoriyani tadqiq qilish vositalari - Nazariyaning muhimligi	Dala tadqiqotlarini tekshirish rejasi Auditoriyaning xususiyatlari			
	5. Bazaviy baholash	Intellectual maqsadlar andozasi Mantiqiy tuzilma			
2. Dizayn (IM_D)	6. Ijtimoiy marketing strategiyasi	Qiymatlar almashinuvi	Hamkorlikda qimmatli dizayn yaratish	Ijtimoiy marketing strategiyasi -tadbirlar majmuini ishlab chiqish	q 0,17
	7. Aralashuv turini tanlash	Marketing majmui			
3. Bajarish (IM_{BJ})	8. Amalga oshirish	Rejani amalga oshirish bo'yicha qo'llanma	O'zaro qiymat almashinuvi ta'minlash	Amalga oshirish rejasi	q 0,33
	9. Navbatdagi baholash	Strategik sharhlar va monitoring shakli			
4. Tavsiflash va o'rganish (IM_T)	10. Baholash va yoyish natijalari	Umumiy ko'rinishda ma'lumot unsurlarni tarqatish rejasi		To'plangan tajribalar; dastur doirasida tajriba almashish	q 0,19

²⁰ Muallif ishlanmasi

Tadqiqot davomida inklyuziv oliy ta'lim doirasida ijtimoiy marketingning shakllantirilgan majmuining asosiy tashkil etuvchilari o'rtasidagi bog'liqlik quyidagi nisbatlarda bo'lishi aniqlandi: $IM_{BQ} = 0,31$; $IM_{DQ} = 0,17$; $IM_{BQ} = 0,33$; $IM_{TQ} = 0,19$.

Tadqiqot ishining “**Oliy ta'lim muassalarida inklyuziv ta'limni rivojlantirishda ijtimoiy marketing vositalaridan foydalanishni takomillashtirish va samaradorligini oshirish**” deb nomlangan uchinchi bobida tadqiqotchi tomonidan inklyuziv oliy ta'limda ijtimoiy marketing vositalaridan foydalanish yo'llari, raqamli texnologiyalar yordamida inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirish imkoniyatlari, bitiruvchilar bandligini ta'minlash va ijtimoiy marketing tizimini takomillashtirish istiqbollari ko'rsatib berilgan.

Inklyuziv oliy ta'limda ijtimoiy marketing vositalaridan samarali foydalanishda oliy ta'lim muassasasida inklyuziv ta'limni tashkil qilishning klasterli modeli ishlab chiqildi (3-rasm)



3-rasm. Oliy ta'lim muassasasida inklyuziv ta'limni tashkil qilishning klasterli modeli²¹

²¹ Muallif ishlanmasi

Ta'lim klasteridagi integratsiya jarayonlari, nafaqat oliy ta'lim muassasasining turli tarkibiy bo'linmalarini rasmiy birlashtirish, balki qo'yilgan vazifalarni hal qilishda eng yuqori samaraga erishish borasida ularning salohiyatini birlashtirishning yangi shaklini izlab topishni anglatadi.

Muallif tomonidan mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarida imkoniyati cheklangan talabalarning kompetentsiyasini rivojlantirishni ko'zda tutuvchi OTMning inklyuziv ta'lim muhitining funksional tuzilmasi taklif qilingan. Mazkur funksional tuzilma inklyuziv ta'lim muhitida talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetentsiyasini shakllantirish jarayonining ichki tashkil etilishi va mazmunini ochib beruvchi o'zaro bog'liq bo'lgan, bir-birini taqozo qiluvchi muntazam tashkil etuvchilar tizimini ifoda etadi, oraliq natijalar va inklyuziv ta'lim muhitining resurs imkoniyatlarini tashxislash asosida yaxlit tizim va uning tarkibiy qismlari funksiyalarini tartibga solishni ta'minlaydi.

Olib borilgan tadqiqot jarayonida Stata-15 dasturini qo'llab Sirdaryo viloyatida istiqomat qiluvchi imkoniyati cheklangan talabalar sonining hududdagi oliy ta'lim muassasalariga o'qishga hujjat topshirishiga ta'sir qiluvchi ko'p omilli ekonometrik model asosida 2027 yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqildi.

